

**Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti Iqtisodiyot fakulteti “Iqtisodiyot va buxgalteriya hisobi” kafedrası assistenti Farhod Tirkashev tomonidan “Makroiqtisodiyot” fanidan “Davlat budjeti, soliqlar” mavzusida tayyorlangan ochiq amaliy darsi ishlanmasiga**

**T A Q R I Z**

Bozor iqtisodiyoti sharoitida har xil mulkchilik shaklidagi xo‘jalik yurituvchi subyektlarni paydo bo‘lishi, xo‘jaliklarning rivojlanishi, xalqaro andozalarga mos bo‘lgan soliq tizimini ishlab chiqishni talab qildi. Shu munosabat bilan, O‘zbekiston Respublikasi Soliq Kodeksi soliqlar va yig‘imlarni belgilash, joriy etish va bekor qilishga, hisoblab chiqarish hamda to‘lashga doir munosabatlarni, shuningdek soliq majburiyatlarini bajarish bilan bog‘liq munosabatlarni tartibga soladi.

O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti (Davlat budjeti) — davlatning davlat vazifalari va funksiyalarini moliyaviy jihatdan ta‘minlash uchun mo‘ljallangan markazlashtirilgan pul jamg‘armasidir.

Davlat budjeti O‘zbekiston Respublikasining konsolidatsiyalashgan budjeti tarkibiga kirib, o‘z navbatida Davlat budjeti ham O‘zbekiston Respublikasining respublika budjeti hamda Qoraqalpog‘iston Respublikasi budjeti, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy budjetlaridan tashkil topadi.

O‘zbekistonda yangi boshlanayotgan yil uchun davlat byudjeti yil yakuni (dek. oyining oxiri)da O‘zR Oliy Majlisi sessiyasida tasdiqlanadi va qabul qilingan davlat byudjeti qonun kuchiga ega bo‘ladi hamda amaliyotga joriy etiladi. O‘zbekiston mustaqillikka erishgandan so‘ng davlat byudjetining shakllanish xususiyatlari boshqariladigan bozor iqtisodiyotiga o‘tish davridagi o‘zgarishlar bilan bogliq holda bordi. O‘zbekiston Respublikasi davlat byudjeti daromadlarining mutlaq ko‘pchilik qismi soliqlar hisobiga olinmoqda.

Tirkashev F. tomonidan ochiq amaliy darsi uchun tanlangan “Davlat budjeti, soliqlar” mavzusi “Makroiqtisodiyot” fanining fan dasturi va ishchi o‘quv dasturi (sillabusi)ga to‘liq mos keladi.

Umuman olganda, ochiq amaliy dars ishlanmasi yangi interfaol pedagogik texnologiyalar bo‘yicha taqdimotlar, ma‘ruza matni, test savollari qilingan holda pedagogik faoliyat va o‘quv faoliyat natijalari bir-biriga bog‘langan holda to‘liq ko‘rsatilgan hamda o‘quv-uslubiy jihatdan to‘g‘ri ishlab chiqilganligini hisobga olib, talabalarga dars o‘tish jarayonida foydalanishni maqsadga muvofiq deb hisoblayman.

**“Iqtisodiyot va buxgalteriya hisobi”  
kafedrası dotsenti, i.f.n.**

**I.Salamov**

**Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti Iqtisodiyot fakulteti “Iqtisodiyot va buxgalteriya hisobi” kafedrasida assistenti Farhod Tirkashev tomonidan “Makroiqtisodiyot” fanidan “Davlat budjeti, soliqlar” mavzusida tayyorlangan ochiq amaliy darsi ishlanmasiga**

**T A Q R I Z**

Bozor iqtisodiyoti sharoitida har xil mulkchilik shaklidagi xo‘jalik yurituvchi subyektlarni paydo bo‘lishi, xo‘jaliklarning rivojlanishi, xalqaro andozalarga mos bo‘lgan soliq tizimini ishlab chiqishni talab qildi. Shu munosabat bilan, O‘zbekiston Respublikasi Soliq Kodeksi soliqlar va yig‘imlarni belgilash, joriy etish va bekor qilishga, hisoblab chiqarish hamda to‘lashga doir munosabatlarni, shuningdek soliq majburiyatlarini bajarish bilan bog‘liq munosabatlarni tartibga soladi.

O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti (Davlat budjeti) — davlatning davlat vazifalari va funksiyalarini moliyaviy jihatdan ta‘minlash uchun mo‘ljallangan markazlashtirilgan pul jamg‘armasidir.

Davlat budjeti O‘zbekiston Respublikasining konsolidatsiyalashgan budjeti tarkibiga kirib, o‘z navbatida Davlat budjeti ham O‘zbekiston Respublikasining respublika budjeti hamda Qoraqalpog‘iston Respublikasi budjeti, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy budjetlaridan tashkil topadi.

O‘zbekistonda yangi boshlanayotgan yil uchun davlat byudjeti yil yakuni (dek. oyining oxiri)da O‘zR Oliy Majlisi sessiyasida tasdiqlanadi va qabul qilingan davlat byudjeti qonun kuchiga ega bo‘ladi hamda amaliyotga joriy etiladi. O‘zbekiston mustaqillikka erishgandan so‘ng davlat byudjetining shakllanish xususiyatlari boshqariladigan bozor iqtisodiyotiga o‘tish davridagi o‘zgarishlar bilan bogliq holda bordi. O‘zbekiston Respublikasi davlat byudjeti daromadlarining mutlaq ko‘pchilik qismi soliqlar hisobiga olinmoqda.

Tirkashev F. tomonidan ochiq amaliy darsi uchun tanlangan “Davlat budjeti, soliqlar” mavzusi “Makroiqtisodiyot” fanining fan dasturi va ishchi o‘quv dasturi (sillabusi)ga to‘liq mos keladi.

Umuman olganda, ochiq amaliy dars ishlanmasi yangi interfaol pedagogik texnologiyalar bo‘yicha taqdimotlar, ma‘ruza matni, test savollari qilingan holda pedagogik faoliyat va o‘quv faoliyat natijalari bir-biriga bog‘langan holda to‘liq ko‘rsatilgan hamda o‘quv-uslubiy jihatdan to‘g‘ri ishlab chiqilganligini hisobga olib, talabalarga dars o‘tish jarayonida foydalanishni maqsadga muvofiq deb hisoblayman.

TDIU Samarqand filiali “Buxgalteriya hisobi va statistika”

kafedrasida dotsenti, i.f.n.

**M.Mardonov**